



## OLIV TA'LIMDA IJTIMOIV-PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING TASHKILIV MASALALARI

**Omonova Sevara Ma'mirjonovna**

Qo'qon davlat pedagogika universiteti "Amaliy psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish va uning uslubiy asoslari hozirga qadar, psixologiya fani oldida turgan muhim masalalardan biri sanaladi. SHunday bo'lsada, hozirga kelib, barcha oliy o'quv yurtlarida talabalarga psixologik yordam ko'rsatadigan laboratoriyalar bilan bir qatorda, o'quv-uslubiy bo'limlar tarkibida maxsus ijtimoiy-psixologik markazlar mavjud. Har bir ta'lim muassasasi psixologik xizmatning asosiy vazifalariga qarab, uning tashkiliy tuzilishini o'zi belgilaydi. Bundan tashqari, oliy ta'lim ta'limda psixologik xizmat ko'rsatish markazi keng qamrovli vazifalarni hal qila oladigan tarzda, tashkil etish lozim.

Tadqiqotchi M.M.Gadjievaning aytishicha, psixologik xizmat ko'rsatish markazi qoidaga muvofiq, universitet nizomi, rektorning buyruq va ko'rsatmalari asosida ish olib boruvchi universitetning tarkibiy bo'linmasi bo'lishi kerak. Psixologik xizmat markazi xodimlari tarkibida, markaz boshlig'i, doimiy ishlaydigan psixologlar, metodist xodimlar, hamda tarbiyachi pedagoglar ham bo'lishi lozim[1, 66]. Ilmiy-amaliy asosga ko'ra, universitetdagi psixologik xizmat ko'rsatish markazi tashkiliy jihatiga ko'ra, turli vazifalarni hal qilish uchun zarur zamonaviy jihozlariga ega bo'lishi kerak, jumladan, guruhiy psixodiagnostik ishlarni amalga oshirish uchun kompyuterlar xonasi, individual maslahat xonasi, guruhiy ish olib borish xonalari hamda ofis xona va boshqalar.

Oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatini tashkil etishga bunday jiddiy tarzda yondashuv avvalambor, psixologik bilimlar rivojlanishining hozirgi bosqichida, shaxsni kasbiy kamol toptirish hamda uning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. I.V.Dubrovinaga ko'ra, oliy ta'limda ijtimoiy -psixologik xizmat ko'rsatishning zarurati sifatida quyidagilar ajratiladi[2, 34]:

- Talabalarining o'quv faoliyatiga bo'lgan salbiy munosabati hamda o'quv faoliyati bilan bog'liq muammolar va cheklangan vaqt resursi;
- Oliy ta'lim sohasida pullik xizmatlar ko'rsatish zarurati va talabalar sonining ko'payib borayotganligi;
- Zamonaviy mutaxassisni tayyorlashga qo'yiladigan talablarning ortib borayotganligi;
- Talabalarining o'quv vazifalarini motivasion istamasligi, ular o'rtasidagi nizoli vaziyatlar va o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlardagi nomuvofiqliklar;
- Universitet faoliyati bilan bog'liq yoshlar muammosi hamda professor-o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq masalalar va boshqalar.

YUqoridagilardan tashqari, universitetlarda psixologik xizmat ko'rsatishning tashkiliy jihati asosan, ilmiy-uslubiy, tashkiliy-metodik jihatlarini muntazam tarzda muvofiqlashtirib borishni talab etadi. YA'ni ta'lim muassasalarida psixologik qo'llab-quvvatlash samarali tashkil etish uchun uchun biz qanday jarayonlarni qo'llab-quvvatlamochi ekanligimizni tushunib olishimiz lozim bo'ladi. Universitetda psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi nafaqat o'quv jarayoni asosida tashkil etilishi kerak, balki talabalarni universitetga moslashishi va



kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayoni va shaxsni ma'naviy-ruhiy jihatdan rivojlantirish xususiyatlaridan kelib chiqishi kerak.

E. I Izotova oliy ta'limda psixologik xizmat ko'rsatishning vazifalariga quyidagilar kiritadi[5,101]:

- Talabalarga o'z hayoti va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar uchun, o'z mas'uliyatini oshirishga yordam berish;

- Kasbiy faoliyatda, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini namoyon qilish uchun motivasiyani rivojlantirish;

- O'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish;

- Talabalar va xodimlarning muammolarini hal qilishda psixologik yordam amaliyot rolini oshirish;

- Universitetning ilmiy-pedagogik jamoasi va talabalar jamoasida qulay ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishga hissa qo'shish.

- Talablarning kasbiy ko'nikma va malakalarini oshirish, hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan, psixologik bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga yordam berish;

- Abituriyentlar va talabalarning qobiliyatlari, moyilliklari, qiziqishlari, salomatligi holatidan kelib chiqib, ularning imkoniyatlarini aniqlashda yordam berish;

- Universitetning fakul'tet va kafedralarida psixologik bilimlarni targ'ib qilish va psixologiya yutuqlarini joriy etish;

- Professor-o'qituvchilar, murabbiylar va ota-onalarga yoshlarni tarbiyalashda, o'zaro yordam berish hamda talabalarda bag'rikenglik, rahm-shafqat, mas'uliyat va o'ziga ishonch, ijtimoiy hamkorlik qilish kabi qobiliyatlarni shakllantirishda yordam berish.

- Universitetdagi ijtimoiy-psixologik vaziyatni tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash va ularning paydo bo'lish sabablarini, ularni hal qilish yo'llari va usullarini aniqlash;

- Talabalar guruhlarida psixologik, psixofiziologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar olib borish;

- Universitet professor-o'qituvchilari, xodimlari va talabalariga psixologik maslahatlar o'tkazish;

- Boshlang'ich kurs talabalariga o'quv faoliyatiga ijtimoiy-psixologik moslashishda yordam berish;

- Psixologik tuzatish choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish va boshqalar.

Demak, yuqorida qayd etilgan maqsadlar, oliy ta'limda o'quv jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlab, universitetning barcha tuzilmalarining yaxshi faoliyat ko'rsatishiga olib keladi, talabalar guruhida qulay ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishga yordam beradi. Bizningcha, hozirgi vaqtda oliy ta'limda psixologik xizmat ko'rsatish amaliyotining zarurati sifatida, uch muhim maqsad ko'zlanadi:

- Birinchidan, jamiyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini real, mazmunli tashabbuslar bilan to'ldirish holati;

- Ikkinchidan, zamonaviy ilg'or universitetlar faoliyatida, o'quv va tarbiyaviy vazifalarni psixologik qo'llab-quvvatlash zarurati;

- Uchinchidan, ta'lim tizimida, jumladan, o'rta maxsus va oliy ta'limda faoliyat yurituvchi, malakali mutaxassislar ya'ni amaliy psixologlarning kasbiy tayyorgarligi



zarurati vaboshqalar. Universitetdagi psixologik xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etishning ilmiy-uslubiy jihati, o'z mazmunida psixologik xizmat ko'rsatish amaliyotini bilan bog'liq, ilmiy-tadqiqotlar, ilmiy grant tanlovlari kabilarni amalga oshirishni ham qamrab olishi kerak.

V.M.Rozinning so'zlariga ko'ra, universitetlarda psixologik xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi bu - talabalarning universitetda muvaffaqiyatli o'qishi va hayotning yangi sharoitlariga imkon qadar tezroq moslashishiga yordam berishdir hamda ta'lim sub'ektlarida paydo bo'lgan psixo-emosional, intellektual va jismoniy ortiqcha muammolarni oqilona hal etishdan iborat[6,94]. SHu bois, fanda shaxsning motivasion sohasi insonning ichki holati va tashqi xulq-atvorini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida tan olinadi.

Psixologik xizmatga murojaat qiladigan sub'ektlarning muammolari va uning mazmuni nafaqat, o'quv jarayonini psixologik qo'llab-quvvatlash balki kasbiy munosiblikni to'g'rilash, talabalarning shaxs sifatida rivojlanishining ayrim o'ziga xosliklarini keng o'rganishga imkon beradi. Tadqiqotlar qayd etilishicha, talabalik yoshi jamiyatda yuksak mavqe'ga ega bo'lishga intilish, o'z kasbini boshqalar tomonidan qabul qilinishi va ma'qullanishi istash bilan alohida ajralib turadi. Talabalik davrida insoniy munosabatlarning barcha jihatlari juda muhimdir. Ularning ko'p harakatlari muloqotga bo'lgan ehtiyoj, boshqalar bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish istagi bilan ham xarakterlanadi. Ayrim talabalar uchun faoliyatda jarayonning o'zi emas, balki bevosita natija muhim ahamiyatga ega sanaladi. SHuningdek, boshlang'ich kurs talabalarida shaxsiy farovonlik, shaxsiy ustunlik, obro'-e'tiborga intilish kabi motivlar ko'proq ustun hisoblanadi. Birinchi kurs talabalarining asosiy maqsadlari va intilishlaridan biri bu o'qituvchilar, kursdoshlar, do'stla va boshqalar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish kabilardan iboratdir. Talabalik davrida bir tomondan, motivasiyaning o'zgarishi, qadriyatlar yo'nalishining o'zgarishi, ikkinchi tomondan esa, maxsus qobiliyatlarning jadal shakllanishi bilan alohida ahamiyatga ega sanaladi.

Talabalik davri - ijtimoiy yaqinlashuvga intilish, o'z hayotining ma'nosini izlash, ob'ektiv sharoitlar va shaxsiy qadriyat yo'nalishlarini tanlash hamda hayotiy rejalarni o'zlashtirish va tanlash bilan ham tavsiflanadi. Demak, ta'limda psixologik xizmatning ko'rsatish amaliyoti o'ta ahamiyatli sanaladi. Amaliy ishlar sifatida, akademik guruhlar bilan treninglar o'tkazish, sog'lom turmush tarzi bo'yicha profilaktik mashg'ulotlar tashkil etish, muammolaga doir ma'ruzalar va seminarlar o'tkazish, individual psixologik maslahat, diagnostika ishlar kabilan amalga oshiriladi. R.V.Ovcharovanning aytishicha, universitetda psixologik maslahat berish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ta'lim yoki maxsus ta'lim masalalarini;
- Vaziyatlarni, muammolarni talqin qilishni;
- Fikrlash, pozisiyalar, faktlar yoki hissiy holatni aniqlashtirishni;
- Nasihat berish, qo'llab-quvvatlash, hamdard bo'lish;
- Suhbatlar uyushtirish, psixologik testlar, guruhviy muhokamalar va boshqalar.

YUqoridagilardan tashqari, oliy ta'limda psixologik xizmat ko'rsatish ishlarida, barcha fakultetlarning birinchi kurs talablari, o'quv yili davomida qator ijtimoiy-psixologik treninglardan o'tadilar ya'ni, tanishuv treningi, kommunikativ trening, o'z-o'zini anglash treningi, o'z -o'ziga ishonch treningi, turli xil huquqbuzarlikliklarni oldini olish bo'yicha treninglar o'tkazish kabilarni ham kiritiladi. SHuningdek, guruh yoki kuratorning buyrug'iga



binoan yuqori kurs talabalari bilan treninglar o'tkaziladi. Treninglar birinchi kurs talabalarini yangi o'quv sharoitlariga moslashtirishning yanada samarali jarayoniga yordam beradi. Guruh ichida va universitet ma'muriyati bilan talabalar o'rtasida katta ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish. Talabalarda turli xil giyohvandliklarni rivojlanish xavfini kamaytirish. Profilaktik mashg'ulotlarni o'tkazish, leksog'lom turmush tarzi bo'yicha sessiyalar va seminarlar.

Xotima qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishdan bosh maqsad shuki, talabalarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan motivasiyani shakllantirish va uni o'z vaqtida rag'batlantirish, universitetda o'quv jarayonini yanada optimallashtirish, talabalar oldiga yangi vazifalarni qo'yish va ularni hal qilishda muhim kasbiy sifatlarni shakllantirish hamda ta'lim sharoitida ijobiy psixologik muhitni yaratish shuningdek, oliy o'quv yurti talabalarida o'quv motivlarini yanada oshirish kabilardan iboratdir.

### REFERENCES

1. Ravshanbek, J. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(4), 304-309.
2. Якубжонов, И., Азизов, М., & Якубжонова, Ф. (2022). РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ И СПОРТА В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 170-173.
3. Akramjonovich, Y. I., Azamovich, A. M., & Ilyasovich, M. S. (2022). Developing human thinking and moving speed through table tennis. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(4), 164-165.
4. Yakubjonov, I. A. (2021). Modern Requirements For Teaching Discipline "Sports" In Higher Education. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research*, 3(02), 21-23.
5. Шодиев, Э., Ирматов, Ш., & Якубжонова, Ф. (2021). Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *Общество и инновации*, 2(2/S), 683-687.
6. Akramovich, A. A., & Nazirjonovich, X. Z. (2021). Technologies for developing of future physical education teachers through media education tools. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 885-890.
7. Эргашев, М. Р. (2019). СИЁСИЙ ДИСКУРС ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Интернаука*, (29), 55-57.
8. Ergashev, M. R. (2019). THE ROLE OF LINKING VERBS IN EXPRESSING PREDICATIVITY IN THE SENTENCE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 297-302.
9. Ergashev, M. R. (2019). THE FUNCTIONAL ASPECTS OF ENGLISH LINKING VERBS. *Экономика и социум*, (6), 26-29.





10. Эргашев, М. Р. (2012). ПРИМЕНЕНИЕ ТЕОРИИ ПОЛЯ ПРИ АНАЛИЗЕ СЕМАНТИКИ ГЛАГОЛА-СВЯЗКИ. Вопросы филологических наук, (6), 50-53.
11. Makhkamova, Z., & Ergashev, M. (2022). Ways and Techniques of Reaching Success With Slow Learners. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 3(6), 85-86.
12. Bakhromova, A., & Ergashev, M. (2022). Suggestopedia As an Important Method of Teaching Vocabulary. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 3(6), 91-93.
13. Закирова, Д. Х. (2018). Развитие профессиональной компетентности педагога в вузе. Актуальные научные исследования в современном мире, (11-7), 44-48.
14. Khaidarovna, Z. D. (2022). Speech genres in the communication of modern youth. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(7), 425-429.
15. Zokirova, D. H. (2021). O'ZBEK FOLKLORINING NAZARIY ASOSLARI. Academic research in educational sciences, 2(8), 109-112.
16. Khaydarovna, Z. D. (2021). A Comparative Study of the Genre of Cursing in Uzbek and Russian. International Journal on Orange Technologies, 3(5), 73-75.
17. Закирова, Д. Х. (2019). ЗНАЧЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. Актуальные научные исследования в современном мире, (3-5), 39-42.
18. Закирова, Д. Х. (2019). Инновационные технологии в качестве основания для развития профессиональной компетенции педагогических кадров. НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ, 22.
19. Xamidovna, M. I. (2022). THE MAIN CRITERIA FOR THE DEVELOPMENT OF CONFLICT PSYCHOLOGICAL TRAINING PROGRAMS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 181-184.
20. Xamidovna, M. I. (2022). OILADA O'SPIRINLARDAGI NIZOLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ta'lim fidoyilari, (Special issue), 11-14.